



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Olimova Qanoatxon Sobirovna, Saidahmedov Ubaydullo

*Biologiya fani o'qituvchisi, Furqat TTb 67 oilaviy paliklinikasi oilaviy shifokori
Qo'qon davlat universiteti akademik litseyi, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy
Email: olimova1970q@gmail.com*

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy ta'lim strategiyalarining mazmuni, ularning o'quv jarayonidagi o'rnini va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida dars tashkil etishning afzalliklari hamda amaliy tajribalar asosida xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta'lim sifati

Kirish

XXI asr ta'lim tizimi tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Globallashuv, jamiyatning har bir sohasida texnologiyalarning jadal rivojlanishi va jamiyat ehtiyojlarining o'zgarishi natijasida ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yilmoqda. Endilikda o'quvchiga faqat tayyor bilim berish emas, balki "markazda talaba" shiori ostida dars tashkillagan holda ularni mustaqil fikrlovchi, muammolarni hal qila oladigan va o'z bilimini amaliyotda ham qo'llay oladigan shaxs sifatida shakllantirish zarur. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta'lim strategiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, pedagog olimlar fikricha, "ta'lim jarayoni o'quvchining faol ishtiroki asosida tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi" (Karimov, 2020)

Asosiy qism

An'anaviy ta'limdan zamonaviy ta'limga o'tish jarayoni va zarurati.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi asosiy bilim manbai sifatida qaralib, o'quvchilar esa koproq passiv tinglovchi rolini bajarib kelgan. Bunday yondashuvlarda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etish qobiliyati va ijodiy yondashuvi yetarli darajada rivojlanmaydi. Zamonaviy ta'lim strategiyalari esa o'quv jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar majmuasi bo'lib, o'quvchini markazga qo'yadi. Ya'ni, o'quvchi ta'lim jarayonining faol va yetakchi ishtirokchisiga aylanadi. V.Klarin ta'kidlaganidek, "zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi- o'quvchini tayyor bilim bilan ta'minlash emas, balki uni mustaqil bilim olishga o'rgatishdir". Mening fikrimcha ham zamonaviy ta'lim texnologiyalariga o'tish- bu nafaqat metodlarni o'zgartirish, balki ta'lim falsafasini yangilash jarayonidir. O'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, fasilitator, baholovchi va motivatsiya beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ta'limda yangi metod va tamoyillarni talab qiladi va ularning ayrimlari quyidagilar:



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



-faol ta'lim – o'quvchilar muhokama, loyiha, tajriba va amaliy mashg'ulotda ishtirok etishadi
-hamkorlikda o'rganish -guruhda ishlash orqali bilim almashish kuchayadi, shuningdek, butun sinfdagi turli xil bilim darajasidagi o'rganuvchilar qamrab olinadi
-muammoli yondashuv- real hayotiy vaziyatlar asosida fikrlash rivojlanadi.

Natijada o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil shakllantirishga, tahlil etishga va amaliyotda qo'llashga o'rganadi. Zero, bugungi pedagogik yondashuvlarda “nimani o'rgatish”dan ko'ra “qanday o'rgatish” va “o'quvchi qanday samarali o'rganadi” savollari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari- bu o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarnig faolligini oshirish va ularning raqobatbardoshligini rivojlantirishga qaratilgan metodlar, vositalar va yondashuvlar majmuasidir. Pedagog olim B.Blumning taksonomiyasiga ko'ra, ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, tahlil, sintez va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishi lozim. XXI asr ta'lim texnologiyalari esa o'quvchi markazdaligi, interaktivlik, individuallashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, raqamlashtirish kabi tamoyillarga tayangan holda aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

J. Dewey fikricha, “ta'lim – bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o'zidir”. Bu fikr zamonaviy o'qitish texnologiyalarining mohiyatini to'liq aks ettiradi deya olamiz chunki qachonki o'quvchi, u qaysi fanni o'zlashtirayotganidan qat'iy nazar, hayotiy voqealar, misollar bilan chambarchas holda o'rgansa yodda saqlab qolishi, kreativ fikrlashi va muammoni mustaqil hal qila olish qobiliyatlari bir necha marotaba ortadi.

Bugungi kunda quyidagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari keng qo'llanilmoqda:

- *masofaviy ta'lim
- *aralash ta'lim
- *teskari sinf
- *loyiha asosida o'qitish
- *muammoli ta'lim

Raqamli texnologiyalar va ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Bugungi kunda ta'lim faqat sinf xonasi va o'qituvchi bilan cheklanib qolmay, virtual muhitga ham ko'chmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otib, ularning faolligini oshiradi, balki murakkab mavzularni vizual tarzda o'rganishga o'z hissasini qo'sha oladi. Bu o'z o'rnida ham o'qituvchiga ham o'rganuvchiga sezilarli yordam ko'rsatadi. Masalan, biologiya fanida inson organizmini 3D formatda ko'rish yoki laboratoriya tajribalarini virtual muhitda bajarish abstrakt tushunchalarni aniq va tushunarli qiladi va o'quvchilarni mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Zamonaviy texnologiyalarni ta'limdan ajratib bo'lmashligini yana bir qancha sabablari bor. Birinchidan, ular axborotga tez va oson kirish imkoniyatini beradi. Internet, elektron darsliklar, onlayn kutubxonalar orqali o'quvchilar istalgan mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotlarni bir zumda topib olishadi. Ikkinchidan ta'lim jarayoni interaktivlashadi. Multimedia vositalari, videodarslar, test platformalari va maxsus ilovalar o'rganuvchini faollashtiradi. Uchinchidan, texnologiyalar individual yondashuvni kuchaytiradi. Har bir o'quvchi o'z tezligida o'rganishi mumkin. Kimdir mavzuni tez o'zlashtirsa, boshqasi qo'shimcha videolar yoki mashqlar orqali mustahkamlashi mumkin. Bu esa "hamma uchun bir xil dars" modelidan ko'ra samaraliroq.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini 30-40% ga oshirishi mumkin. Buni o'qituvchi sifatida biz real hayotda amaliy isbotini ko'rib turibmiz. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, texnologiya o'zi maqsad emas, balki vositadir. Uni samarali qo'llash o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari rivojida xorijiy tajriba, milliy yondashuv va o'qituvchi roli.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Finlandiya ta'lim tizimi o'quvchi markazli yondashuv, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va stressiz o'qitish tamoyillariga asoslanadi. Bu mamlakatda o'qituvchilarga katta erkinlik berilib, ular dars jarayonini ijodiy tashkil etish imkoniyatiga ega. AQSH va Janubiy Koreya tajribasida esa yuqori texnologiyalar, tezkor internet va raqamli ta'lim muhitining rivojlanganligi alohida e'tiborga loyiqdir. Mening fikrimcha, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining muvaffaqiyati faqat texnik vositalarga emas, balki ularni to'g'ri pedagogik yondashuv asosida qo'llashga bog'liq.

Yurtimizda ham o'qituvchilarning pedagogik texnologiyalar asosida darslar tashkillash qobiliyati va malakalarini oshirgan holda xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirib qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'qituvchilarning roli katta. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Zero, zamonaviy o'qituvchi – bu "umr bo'yi o'rganadigan shaxs" bo'lib, doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini zamon bilan hamnafas bo'lgan holda yangilab borishi kerak. Aynan shunday yondashuv orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mumkin.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishda muammolar va ularning yechimlari

Muammolar	Tavsifi	Takliflar
Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi	Ko'plab ta'lim muassasalarida zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar va tezkor internet mavjud emas	Davlat va xususiy sector hamkorligini kuchaytirgan holda ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika bilan jihozlash; yuqori tezlikdagi



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Ayrim o'qituvchilarning raqamli savodxonligi pastligi	Ko'plab pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar ham o'qituvchining texnologik tayyorligi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi	internet bilan ta'minlash. Malaka oshirish kurslarini muntazam tashki etish; amaliy treninglar o'tkazish; onlayn platformalardan foydalanishda xalqaro tajribalarni o'rgatish
O'quvchilarning noto'g'ri foydalanishi	Texnologiyalar o'quvchilar diqqatini chalg'itishi va ulardan boshqa ko'ngilochar maqsadlarda foydalanishga undashi mumkin	Nazorat va monitoringni kuchaytirish; o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish; ta'limiy platformalarni joriy etish
An'anaviy fikrlashning ustunligi	Ba'zi pedagoglar yangi metodlarni qabul qilishda qiyinchilikka duch keladi	Innovatsion madaniyatni shakllantirish; tajriba almashish seminarlarini tashkil etish; yordamga yosh mutaxassislarni jalb etish
Masofaviy ta'limdagi muammolar	Onlayn darslarda nazorat, intizom va ishtirok darajasi past bo'lishi mumkin	Barcha o'quvchilarda qiziqish uyg'ota oladigan interaktiv platformalardan foydalanish; baholash tizimini takomillashtirish; o'quvchilar bilan muntazam aloqa o'rnatish

Xulosa

Raqamli ta'lim turi zamonaviy o'qitish strategiyalari tufayli rivojlanib bormoqda. Ular eski, asosan, yodlash va takrorlashga asoslangan metodlardan farq qilgan holda darslarda tanqidiy fikrlash, faol o'rganish hamda hamkorlikda ishlashni rivojlantiradi. Har ikkala yondashuv (zamonaviy va an'anaviy) ma'lum darajada samarali bo'lsada, hozirgi va kelajak ta'limida zamonaviy metodlarning ahamiyati tobora ortib borayotgani yaqqol ko'rinib turibti. Ta'limdagi



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



bu o'zgarishlarni qabul qilish va ularga moslashish esa o'quvchilarga kelajak uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berishi mumkin.

Shu bilan birga, ularni joriy etishda mavjud bo'lgan muammolarni ham inkor etib bo'lmaydi. Ammo to'g'ri strategiya, samarali boshqaruv va uzluksiz rivojlanish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim texnaogiyalarini joriy etish – bu kelajakni qurish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bloom B.S Taxonomy of educational objectives. New York,1956
2. Dewey J. Experience and Education. New York, 1938
3. Dr. Tangme Marchina, Modern teaching methods in education,2024
4. Ibragimov A.A. Pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini takomilastirishga ilmiy-metodik hamkorlikning pedagogic-psixalogik xususiyatlari,2017
5. Muslimov N.A va boshqalar. Kasb ta'limi o'qitvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi, 2013